

IMOM AL-BUXORIYNING AXLOQ HAQIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Dehqonboyeva Marjona Azizbek qizi

Nuriddinova Shahnozaxon Ilyosbek qizi

Odilova Oyishaxon Abduraxmon qizi

Andijon davlat chet tillar instituti talabalari

Annotatsiya. Biz ushbu maqolada adabiyot va diniy sohada til o'rganishning ahamiyatini bilgan, pedagogik g'oya va prinsiplarga ega bo'lgan insonlardan biri Imom al-Buxoriyning pedagogik g'oyalari o'zidagi ma'naviy bilimlar darajasiga, ta'lim va tarbiya nazariyasiga asoslanganligi haqida fikr yuritamz. Imom al-Buxoriyning pedagogik g'oyalari o'z navbatida o'qituvchining o'qituvchilik prinsiplariga, o'zgaruvchanligi va bardoshlilik berilgan e'tibor bilan tanilganligini yuritamz.

Kalit so'zlar: pedagogika, hadis, sahih, tarbiya, axloq, muhaddis.

Insoniyat madaniyati xazinasida shunday noyob kimsalar, nodir siymolar borki, hamma zamin-u zamonlarda barcha avlodlar ulardan o'zlari uchun ruhiy ham ma'naviy ozuqa oladilar. Shunday siymolar qatoridan sharaflil o'rin olgan yurtdoshimiz islom dinining rivojlanishida ahamiyatli o'rin egallagan birinchi asrning muhim diniy va ilmiy shaxslaridan biri Imom al-Buxoriy bo'ldi. U Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy nomi bilan mashhur bo'lgan. Buyuk muhaddis, hadis ilmining sultoni Buxoriy 810-yil Buxoroda tavallud topgan. U Makka, Madina, Damashq, Bag'dod, Kufa, Balx, Nishopur, Asqalon, Marv kabi shaharlarda bir necha yil yashab, hadis to'plash, yozish va ko'plab toliblarga ilm o'rgatish bilan shug'ullanadi. Buxoriy qalamiga mansub bo'lgan "Al-Jome' as-Sahih", "Al-alab al-mufrat", "At-tarix al-kabir", "Birrul volidayin", "Kunyalar", "Asmo as-sahoba" kabi asarlar hozirda respublikamiz kutubxonalarida foydalanilmoqda. Imom al-Buxoriyning qalamiga mansub asarlarining

orasida eng mashhuri “Al-Jome’ as-Sahih” hisoblanadi. Ushbu asar islom olamida Qur’ondan keyingi eng muhim manba sifatida e’zozlanuvchi asar sanaladi.

Burch, qadr-qimmat, vijdon, adolat, poklik va shu kabi tushunchalar xalqda qadimdan ma’naviy-axloqiy me’yorlar sifatida faylasuflar, Mutafakkirlar, pedagoglar e’tiborini jalb etib kelgan. Bu sohalarga Bag’ishlangan ishlarni tadqiqotchi A.J.Muratboyeva uch guruhga bo’ladi. Birinchi guruhga muallif al-Buxoriy, at-Termiziy, al-G’azzoliy, Ahmad Yassaviy va boshqalarning asarlarini kiritadi. Ular inson abadiyligi Uning yaxshi nomi, ezgu amalida deb ko’rsatadi. Shu sababli ma’naviy mezonlariga bo’ysunib, insonni ezgulik va muruvvatga chorlaydi.

Ikkinchi guruhga Suqrot, Arastu, Diogen, Mork, Avreliy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, K.Rerix, N.Rerix, I.Kant kabilarning asarlarini kiritadi. Bu mutafakkirlar ma’naviy tushunchalarni insonning ma’naviy sifatleri Jihatidan voritadilar. Bu sifatlar insonlarning o‘zaro munosabatlarida yaxshilik, halollik, adolat, mehr-shafqat, o‘zaro yordam kabilarni tushunishga ko‘maklashadi. Masalan, Forobiyning ta’kidlashicha, «O‘zida o‘n ikki tug‘ma xislatni birlashtirgan kishigina ma’naviy axloqli odam bo‘la oladi».

A J.M uratbayeva uchinchi guruhga zamonaviy tadqiqotchilar asarlarini kiritadi, ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar boshqa umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqada, insonlar faoliyatida yaxshilik va yomonlikni baholashda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda, birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma’naviy meroslari muhim dasturiy amal ahamiyatiga ega boladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qur’oni Karim va adisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar mazmunida o‘z

ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlaridan biri Imom Ismoil al-Buxoriyning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

Imom al-Buxoriyning asarlari Islom olamida Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyliги puxta o'rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahih deyiladi. Sahih so'zining ma'nosi sog'lom, to'g'ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislami to'plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi. Hadislami to'plash ishlari VIII asrdan boshlangan. Payg'ambar alayhissalomni ko'rgan va bilganlardan yozib olingan ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis to'plovchilar ibn Shahob Az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa'd al-Ansoriy, Ibn Jurayj kabilar bo'lgan. Dunyoga mashhur muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, imom Nisoiy, imom Ibn Majj' Kazviniy, Abu Iso Muhammad as-Samarqandiy, imom at-Termiziydirlar. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarning hadis to'plashdagi xizmatlari juda katta. Bu ulug' alloma birgina «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam») asari ustida o'n olti yil ish olib borgan. Va olti yuz ming hadisni to'plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, «Al-jome' as-sahih» asaridan odob-axloq mavzuiga bag'ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrat («Adab durdonalari») deb nomlangan bo'lib, bu asar 1322 ta hadisni o'z ichiga olgan. Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik — mana shu to'rt xislatni Olloh Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi. Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammallikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi.

Ulug' olimning ta'kidlashicha, har bir odam komil inson bo'lish uchun o'zi yaxshi ko'radigan narsasini o'zgalarga ham ravo ko'radigan, go'zal axloqli bo'lishi kerak. Roviylar: “E Rasulullox! Insonlarga berilgan fazilatlarining eng yaxshisi nima?” - deb so'rashadi. Rasululloh: “Insonlarga berilgan fazilatning eng yaxshisi yaxshi axloqdir. — dedilar. Imom Buxoriy xayoli bo'lishni juda ulug'laydi. Hayoni iymon belgisi deb biladi.

Bu xususda shunday rivoyat keltiradi: “Rasululloh o‘z birodariga sharmu hayodan pand-u nasihat qilayotgan bir ansoriyning yonidan o‘ta turib: «Hayo ham iymon belgilaridandur», - deb uning gapiga qo‘shimcha qildilar. Ulug‘ olim odamlarni to‘g‘ri so‘zli bo‘lishga, va’daga vafo qilishga da’vat etib, munofiq kishining uchta belgisi bo‘lishligini ko‘rsatib, ularga yolg‘on gapirishdan, va’daga vafo qilmaslikdan va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. Imom Buxoriy musulmon kishini xaqorat qilishni gunoh, u bilan urishishni kofirlik deb biladi. Va yana shu fikrni davom ettirib, insonning kuch-qudrati jismonan paxlavonligida emas, balki jaxli chiqqan vaqtda o‘zini tiya olishida deb hisoblaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Imom al-Buxoriyning pedagogik go‘yalari, din ilmga bag‘ishlangan yuqori ma’naviy tamoyillari bilan bog‘liqdir. U qadriy ,ilmiy ma’lumoti va adolatli hayoti bilan mashhur bo‘lgan bir shayx va muhaddislardan biri hisoblanadi. Imom al-Buxoriyning pedagogik go‘yalari quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

1. Ilmni qidirish: Imom al-Buxoriyning hayoti va ilmga ishora qilish usllari davlatdan davlatga yetib kelgan bo‘lib, ilmni qidirishda vaqt ajrating. U o‘zini ilm olgani, boshqa olimlarning yonida ilm olgan odam hisoblanadi.

2. Tahorat va murojaat: Imom al-Buxoriy tahoratga va murojaat qilishga katta e’tibor qaratadi. U o‘quvchilarning o‘zlarini ilm olishda asl maqul qiluvchi masalalarni tadbiq etishlarini talab etadi.

3. Adolat va erkinlik: Imom al-Buxoriy o‘quvchilarning adolat va erkinlikka e’tibordan ketsalar, ilm olishlarini va tarbiyaviy rivojlanishini eng yaxshi holda amalga oshirishlari kerakligini tushundiradi. U o‘quvchilarga adolat va erkinlikni qo‘llash, qonuniy huquqni mustahkam hisoblashni o‘rgatish orqali ularni ozod etish va qo‘rquv tark etishini o‘rgatishga intiladi

Imom al-Buxoriyning pedagogik go‘yalari dindorlik, adolat, vaqti boricha faol ilm olish va umr davomida o‘qib o‘rganish , o‘z-o‘zini ilm birligidan o‘quvchilarga ta’lim berishni belgilaydi. Uning ibodat, ilm, adolat va insoniyatga hurmatga qilish prinsiplari

bugungi kunda ham ilm-fan sohasida yagona bo‘lib qolganligi uchun, uning pedagogik go‘yalari hozirda ham mustaqil o‘zaro muhitda sifatli ta’lim berishga yondashganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva A.M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Tosh. 2011.
2. To‘xtaxodjayeveva M., S.Nishonova. Pedagogika 1-qism. Darslik. Tosh. 2010.
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Tosh. 2017.
4. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.
5. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O‘zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o‘rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
6. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
7. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>
8. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.
9. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.

10. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 216-222.

11. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.

12. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.

13. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.

14. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131.

15. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.

16. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.